

2020– yilning yanvar – dekabr oylarida Andijon viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 27117,1 mlrd.so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar– 26346,6mlrd. so'mni (102,9 %), o'rmon xo'jaligi–641,0 mlrd. so'mni (102,5 %), baliqchilik xo'jaligi – 129,3 mlrd. so'mni (117,2 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.



27117,1

**Andijon viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01



26346,6

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02



641,0

O'rmon xo'jaligi


03




129,3

Baliq xo'jaligi

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



■ Oʻrmon xoʻjaligi

■ Baliq xoʻjaligi


■ Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar

■ Dehqonchilik

■ Chorvachilik

2020– yilning yanvar – dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,6 % i–dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,4 % i– o‘rmon xo‘jaligi, 0,5 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Shaxrixon (2626,0 mlrd. so‘m) va Asaka (2625,1 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Honobod shahri (135,6 mlrd. so‘m), Andijon shahri (751,7 mlrd. so‘m) va Ulug‘nor tumanini (1135,5 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (102,9 %) yuqori o‘sish sur‘atlari Xo‘jaobod (112,8 %) va Qo‘rg‘ontepa (104,7 %) tumanlarida kuzatildi. Oltinko‘l (101,1 %) tumanida Honobod shahrida (100,3 %) , esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 26142,7 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,7 % i, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 16839,9 mlrd. so'mni (102,9 %), chorvachilik mahsulotlari– 9302,8 mlrd. so'mni (102,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi

64,4%
Dehqonchilik
mahsulotlari




35,6%
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 64,9 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 32,6 % i – fermer xo'jaliklariga, 2,5 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2020–yilning yanvar – dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Baliqchi tumanida (45,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Honobod shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'rg'ontepa tumanida (9,0 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Oltinko'l tumanida (23,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Bo'ston tumanida (49,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Baliqchilikchi tumanida (0,2 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2020– yilning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 16839,9 mlrd. soʻmni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 102,9 % i tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 64,4 % i tashkil qildi.

Donli ekinlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar








Andijon viloyati bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming tonna



Sabzavotlar




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 611 ming t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar– dekabriga nisbatan 0,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Andijon viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming tonna




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2020 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 376,5 ming t. kartoshka (2019 yilning yanvar – dekabrga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 75,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




Andijon viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, ming tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 169,5 ming t. poliz (2019 yilning yanvar - dekabrga nisbatan 2,7 % ga kam) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 67,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




Andijon viloyati bo'yicha **poliz** yetishtirish hajmi, ming tonna




Mevalar va rezavorlar


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2020 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 666,9 ming t. mevalar va rezavorlar (2019 yilning yanvar – dekabrga nisbatan 5,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 70,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.




Andijon viloyati bo'yicha
mevalar va rezavorlar yetishtirish
hajmi, ming tonna




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2020 yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 88,2 ming t. uzum (2019 yilning yanvar – dekabrga nisbatan 13,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 45,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Andijon viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, ming tonna




Chorvachilik



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 9 302,8 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 102,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib

borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 154,8 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – dekabrga nisbatan 2,1 % ga ko‘p), 983,9 ming t. sut (3,2 % ga ko‘p), 699,1 mln.dona tuxum (2,4 % ga ko‘p), va 12827,5 t. baliqchilik (16,1 % ga ko‘p) ovlandi.


Go'sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming t.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 154,8 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – dekabrga nisbatan 2,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Andijon viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 983,9 ming t. sut (2019– yilning yanvar – dekabrga nisbatan 3,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Andijon viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 699,1 mln.dona tuxum (2019– yilning yanvar – dekabrga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 74,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Andijon viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln dona




Baliqchilik


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




**Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2020– yilning yanvar – dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 12,8 ming t. (2019– yilning yanvar – dekabrga nisbatan 16,1 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 51,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Andijon viloyati bo'yicha ovlangan baliqchilik hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021– yining 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,1 % i fermer xo'jaliklariga, 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jalik-lariga, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 18,5 % i fermer xo'jaliklariga, 79,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 16,9 % i fermer xo'jaliklariga, 68,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021– yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 066,2 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 9,0 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, mingbosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Andijon viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 367,4 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,5 ming taga (1,8 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh




O'sish sur'ati




**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Andijon viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 454,8 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 17,5 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, qo‘y va echkilarning 94,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



Andijon viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 6785 taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 91 taga (1,4 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 79,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Andijon viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8390 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 390,0 ming taga (4,8 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 68,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Andijon viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 74-228-29-63
• 74-228-29-85